

INGLIZ SHOIRLARI TALQINIDA SONET JANRI

Qayumova Nigora Muxtor kizi

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz sonetchiligining paydo bo'lishi, uning rivojlanish tarixi, mashhur ingliz sonetnavislari va ularning ingliz she'riyatiga qo'shgan hissasi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: sonet, ingliz she'riyati, sonet tuzilishi, aktava, sestet, qofiya, shoir, sonnet mavzusi, adabiyot

Jahon she'riyatida XIII asrda paydo bo'lgan sonet janri Italiyada ikki asrdan ko'proq vaqt davomida keng qo'llab kelingan bo'lsa-da, Angliyaga, ya'ni ingliz she'riyatiga 1530-yillarda kirib keldi. Ser Tomas Uayt, Filip Sidney, Edmund Spenser kabi shoirlar o'z ijodlarida sonetning ilk namunalari yaratib, uni takomillashtirdilar. Ingliz sonetchiligining rivojlanishi Yelizavetta davri adabiyotiga borib taqaladi. Yelizavetta davri adabiyoti sonetnavislari Petrarka sonetlarining tuzilishi va mavzusiga amal qilganlar. Petrarka davridagi sonet klassik sonet sifatida o'n to'rt misrali bo'lib, u ikki qismga aktava (sakkizlik) va sesteta (oltilik)ga bo'lingan. Aktava ikkita to'rtlikdan, sestet esa ikkita uchlikdan tashkil topgan. Aktavada shoirlar sonetning mavzuni tanishtirishgan bo'lsa, sestetda uning ezgulikni targ'ib etuvchi mazmundagi yakunini ifoda etishgan. Yelizavetta davri adabiyoti sonetnavislari ham Petrarka singari 14 qator a-b-b-a; a-b-b-a qofiyali aktava, va c-d-e-c-d-e yoki c-d-c-d-c-d qofiyali sestet shaklida sonet yaratganlar. Petrarka sonetlarining asosiy mavzusi muhabbat mavzusi edi. Yelizavetta davri shoirlari ham dastlab shu mavzuga murojaat qilganlar. Bu she'rlarda oshiq odobli, g'amnok, umidsiz qiyofada, sevikli yor esa mag'rur, oshiqqa qayrilib boqmaydigan dildor sifatida gavalantirilgan.

Ser Tomas Uayt Fransiya, Italiya, Ispaniya sudlarida diplomatik missiyalarda ishtirok etgan. U fransuz va ispan sonetlari bilan ham tanishib, italyan sonetlaridan ta'sirlangan va sonet yozishda italyancha shaklni o'ziga namuna qilib olgan. Ser Tomas Uaytning shogirdi Surrey o'zining qisqa umri davomida oz sonli sonet yaratgan. Surrey kam sonli sonetlar yaratganiga qaramay, o'zining zamondosh va undan keyingi davr sonetnavislariga Uaytdan ko'ra ko'proq ta'sir qila olgan. Surreydan keyin ko'plab shoirlar sonet yozishda davom etdi, albatta, ammo Edmund Spenser sonetlar yozishga o'tirmaguncha, sonetchilik mavzu ko'lami kengaymadi. Edmund Spenser Londonning Sharqiy Smitbielld shahrida tug'ilgan. 1576-yilda Kembrijda magistr darajasini olgandan so'ng Spenser Rochester episkopi Jon Yangning kotibi bo'ldi va shu tariqa ser Filipp Sidney bilan tanishdi, Spenserning sonetlar ketma-ketligi Amoretti deb nomlanadi. Unda sakson to'qqizta sonet mavjud bo'lib, ulardan faqat bittasi shekspircha shaklda, qolganlari esa u ixtiro qilgan shaklda yozilgan. Uning soneti uchun o'zining qofiya sxemasi bo'lib, u qo'shiq va alohida misralarni aralashtirib, shuningdek, uch to'rtlikni bir-biriga juda nozik tarzda bog'lagan. Bu sonetlarda ham muhabbat mavzusi yetakchi sanalgan. Spenserga Surreydan tashqari Ser Filipp Sidney ta'sir ko'rsatgan. Yelizavetta davri adabiyotining eng yaxshi sonetchilaridan biri bo'lgan Sidney o'zining bir yuz sakkiz sonetdan iborat "Astrofel va Stella" sonetlari ketma-ketligi uchun mashhur bo'lgan. Ushbu sonet ketma-ketligidan tashqari, u yana bir nechta sonetlarni ham yozgan, ammo ular "Astrofel va Stella" kabi mashhurlikka erisha olmagan. Sidney ser Genri Sidning to'ng'ich o'g'li, uch marta Irlandiyaning lord deputati bo'lgan. U Oksforddagi Krist cherkoviga boradi, lekin hech qanday diplom olmasdan institutni tark etadi va Yevropa bo'ylab sayohat qiladi hamda tez orada qirolicha Yelizaveta saroyining yorqin a'zosiga aylanadi. O'zining go'zal xulq-atvori, shirin suhbat, yorqin zehni va jasoratligi bilan u yosh avlodning go'zal ideali sifatida e'tirof topadi. Sonetlardan tashqari, u malika sharafiga "Maryam xonim" asarini yozadi va uni 1578-yilda nashr ettiradi. Uning sonet

yaratishdagi mahorati shu qadar zo‘r ediki, sonetchilikda Shekspirdan keying o‘rinni egallaydi. Sidney sonetnavislikda, odatda, italiyaliklarga ergashdi. Sonetnavislik sohasidagi sezilarli o‘zgarishlar, asosan, Shekspir tomonidan amalga oshiriorqali sodir bo‘ldi. Uning uslubi ham, mavzusi ham avvalgi sonet yozuvchi shoirlarning ijodan farq qilar edi. Uning 14 misradan iborart soneti esa to‘rt qismga bo‘lingan: uchta to‘rtlik va yakunlovchi qism (a-b-a-b; c-d-c-d; e-f-e-f tarzida qofiyalangan uchta to‘rtlik va g-g tarzida qofiyalangan yakuniy bandi). Shekspir sonetining mavzulari ham xilma-xildir. Bu sonetlarda ishq, go‘zallik, hasad, bevafoqlik, vaqtning o‘tkinchiligi, o‘lim kabi mavzular yoritilgan. Oldingi sonetnavislarning sonetlari faqatgina mahbubaga bag‘ishlangan bo‘lsa, Shekspir sonetlari mahbubaga, ayni damda, do‘stga bag‘ishlangan bo‘lib, ishqiy yoki axloqiy mazmun kasb etadi. Shekspir sonetlari ingliz adabiyotida ko‘plab tortishuvlarga sabab bo‘lgan. Shekspirshunos olimlar shoirning birinchidan bir yuz yigirmagacha bo‘lgan sonetlarini sirli do‘stiga, bir yuz yigirma sakkizinchidan bir yuz ellik ikkinchigacha bo‘lgan sonetlarini qorasoch xonimga ba‘g‘ishlangan deb hisoblashadi. Yelizavetta davridan keyin sonet yozish an‘anasi pasaya boshladi. Olimlar bunga ingliz xalqi ruhiyatining o‘zgarishi va hayotga bo‘lgan munosabatining yangilanishi sabab deb ko‘rsatishadi. Sonetnavislik, taxminan, ellik yillarcha rivojlanmadi. Shundan so‘ng Jon Milton qisqa vaqt ichida sonet janrini qayta jonlantirdi. Ammo u sonet ketma-ketligini inobatga olmagan, faqat bir nechta sonet yozgan. Qizig‘i shundaki, bu shoir sevgi mavzusida sonetlar bitmagan. Milton faqat maxsus holatlarda: biron bir voqeani nishonlash, biror voqeani yod olish, shaxsni ulug‘lash va shu kabi maqsadlarda sonetlar yozgan. Kits, Shelley, Vordsvorz va boshqalar biz uchun juda ko‘p ilhomlantiruvchi sonetlarni qoldirdilar, ammo Vordsvortz sonetlari badiiyatini boshqa shoirlarnikiga qaraganda balandroq deb hisoblashgan. Milton singari, Vordsvortz ham sonetlarini muhabbat mavzusida yaratishni afzal ko‘rmagan va sonet shaklidan turli maqsadlarda foydalangan, sevgi mavzusida juda kam sonetlar yozgan. U ham

Milton kabi 14 qatorli sonet shaklini qo‘llashni afzal bilgan. Lekin turli qofiya ko‘rinishlarini qo‘llash orqali o‘ziga xoslik kasb eta olgan: abba, abba, cdcd, c d qofiya tartibini misol keltirish mumkin. Vordsvorz singari, Keats ham sonet uchun turli mavzular va qofiya sxemalaridan foydalangan. Afsuski, XX asrda ingliz shoirlarida sonetga bo‘lgan qiziqish ancha pasaydi. Bu asrda juda kam shoirlar sonet yaratgan; shu shoirlar ham juda kam sonli sonetlar yozganlar. Ingliz tilida faqat uchta shoirni bu asrning asosiy sonetnavislari deb hisoblash mumkin. Angliyalik Rupert Chavner Bruk, AQSHdan Robert Fros va AQShning ingliz shoiri Uistan Xyu Oden sonetlari XX asr ingliz sonetchiligi namunalariidir.

Xulosa qilib aytganda, asrlar davomida sonet she'riy ifodaning juda kuchli shakli ekanligi isbotlandi va u hozirgacha juda ko‘p sinovlardan o‘tdi. Ingliz sonetchiligi dunyo sonetchiligida alohida o‘ringa egaligi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 1-tom. Adabiy asar. T., Fan 1978.
2. Crosland T. The English Sonnet. Hesperides Press, 2006.
3. Fuller J. The Oxford Book of Sonnets. Oxford University Press, 2002.
4. Phelan J. The Nineteenth Century Sonnet. Palgrave Macmillan, 2005.
5. Rahmonova S. Sonetlar gulchambari va janr taraqqiyoti// Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2008. 1-son, B. 134-136.
6. Shukurov N. Sonetlar/ bu olam sahnida. – Toshkent : Adabiyot va san’at, 1982. – B. 192-193.
7. Spiller G. The Development of the Sonnet: An Introduction. Routledge, 1992.
8. kizi, Q. N. M. ., & Qayumovich, R. M. . (2021). The Poetics of Colors in English Poetry. *Middle European Scientific Bulletin*, 16. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.16.707>
9. Muxtorovna, Kayumova Nigora, Shukurova Nigora Shavkatovna, and Safoeva Sadokat Nasilloevna. "The role of the ethnographic vocabulary in the English and Uzbek languages." *International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering* 8.9 S3 (2019): 1551-1554.

10. Qayumova, N., and S. Safoyeva. "The Connotative meanings of noun and adjective lexemes in Uzbek and English languages." *Scientific reports of Bukhara State University* 6.82 (2020).
11. Qayumova, Nigora. "IDEOLOGY AND ART OF WILLIAM SHAKESPEARE'S SONNETS." *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences* 2.8 (2023): 94-97.
12. Ro'ziyev, M. (2022). ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ НЕМЕЦКОМУ ЯЗЫКУ НА ОСНОВЕ ТРЕТЬЕГО ПЕРИОДА ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 3(3). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4707
13. kizi, Q. N. M. "The Genre Sonnet in the Poesis of Shakespeare". *International Journal on Integrated Education*, Vol. 6, no. 3, Mar. 2023, pp. 233-6, <https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/4183>.
14. Qayumova, N. (2023). ШЕКСПИР ВА РАУФ ПАРФИ СОНЕТЛАРИДА БАДИИЙ ТАСВИР ВОСИТАЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИШИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 30(30). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9194
15. Кахарова, Н. Н. Дидактический материал как средство повышения познавательной деятельности учащихся на уроках русского языка / Н. Н. Кахарова // *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации : сборник статей LXIII Международной научно-практической конференции, Пенза, 15 февраля 2023 года. – Пенза: Наука и Просвещение (ИП Гуляев Г.Ю.), 2023. – С. 170-172. – EDN FLGUQW.*